

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF  
O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH**

**TEACHING PRIMARY STUDENTS TO THINK INDEPENDENTLY IN MOTHER  
LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7828445>

**Xadjimusayeva Nilufar**

*Jizzax pedagogika universiteti Filologiya fanlari dotsenti*

**Kushbakova Munavvar Yusup qizi**

**Anvarova Xumora Shavkat qizi**

*Jizzax pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Quyida berilgan maqolamizda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish yo'llari ko'rsatilgan bo'lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va afzalliklari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Mantiq, faoliyat, mustaqil fikrlash, tafakkur, texnolog, didaktik o'yinlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, modulli ta'lim texnologiyalar.*

**Abstract:** *The following article shows ways to widely use modular educational technologies in teaching primary school students to think independently in native language and reading literacy classes, and highlights the importance and advantages of modern pedagogical technologies.*

**Key words:** *Logic, activity, independent thinking, thinking, technologist, didactic games, pedagogical technologies, innovation, modular educational technologies.*

Yangi O'zbekiston o'zining mustaqilligiga erishgach, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol tarbiyalash masalasi davlat miqyosidagi ustuvor masala etib belgilandi, bu yo'nalishda respublika Prezidentining ko'plab qarorlari, Farmonlari qabul qilinib muhim islohotlar amalga oshirildi va yanada mukammal holda davom ettirilmoqda. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan muhim talablardan biridir. Ona tili va o'qish savodxonligi darslari boshlang'ich sinflarda

o'qitiladigan asosiy o'quv predmetlaridan biri bo'lib, nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi.

O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish qachondan boshlanadi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Buning uchun insonning fikrlash jarayonining shakllanish bosqichlarini bilish lozim. Insonning fikrlash jarayoni hayotni, insonlarni, ular orasidagi munosabatlarni, tabiatni sezgilar yordamida kuzatish jarayonida shakllana boradi. Bola dunyoga kelgandan boshlab hayotni, kattalar faoliyatini, tabiatdagi voqea va hodisalarni ko'rib, kuzatib, ularni o'ziga o'zlashtira boshlaydi va natijada unda tasavvurlar paydo bo'ladi, nutq shakllanadi. Shuning bilan birgalikda bola sezgilari yordamida to'plagan ma'lumotlari asosida ko'plab tasavvur boyliklariga ega bo'ladi va uni tushunishga, anglashga intiladi. Shuning uchun ularda ko'plab savollar paydo bo'ladi. Masalan:

Osmonda nima bor?

Nega kecha va kunduz bo'ladi?

Qushlar nega uchadi?

Nega men kichkinaman?

Nega ranglar xilma-xil?

Nega yomg'ir, qor yog'adi?

Ular qaerdan paydo bo'ladi?

Bulut-chi? va hokazo. Bir onaning uch yarim yashar bolasi haqida so'zlab berganlari: "Bir kun bolam menga shunday savol berdi: -Ona nega bizning burnimiz har xil? Meniki yassi, sizniki tik, opamniki yana boshqacha? Nima deyishni bilmasdan, - Shunday yasashganda bolam, dedim. - Kim yasagan, do'xtirlarmi? Ular kesib-kesib yopishtirishadimi? - Yo'q, bolam, xudo yasagan. - Xudo qanday yasaydi? Xullas, bolam meni savol-javobda yengdi. Nima deb tushuntirishni bilmadim. Bolamni chalg'itishga harakat qildim. Bolam esa savol berishini to'xtatmas edi. Darhaqiqat, maktabgacha tarbiya yoshida bolalar ota-onalariga tinimsiz savollar yog'diradilar. Ana shunday paytda bolaning savollariga chidam bilan javob berish uning fikrlashiga, voqea, hodisalarni anglashiga yordam beradi, nutqining o'sishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muammosi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Bu borada izlanish olib borgan adabiyotshunos olimalaridan biri Q. Husanbayeva "Mustaqil fikrlash –insonning o'z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o'z intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir", deb ta'kidlaydi. Boshlang'ich ta'limda, asosan, o'quvchining ongiga savodxonlik asoslari va hisoblash tafakkuri elementlarini singdirishdan iborat jarayon yetakchilik qiladi.

Demak, bu davrdagi savodxonlik uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bo'g'inlarini intellektual salohiyatli bo'lishligiga mustahkam zamin yaratadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda o'tiladigan darslar o'quvchini mustaqil va tanqidiy

fikrlashga yo'naltirilgan. Shu kabi fanlardan biri "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani bo'lib, ushbu fan o'quvchilarda yod olish, ko'chirib yozish, olingan bilimlarni takrorlashdan xoli bo'lgan, butunligicha o'quvchini mustaqil fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi mavzulardan iborat darsliklardan foydalanilgan holda o'tilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi-yoshlarni Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shuvchi, har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarining imkoniyatlari nihoyatda kengdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-5712 son. 29.04.2019 yil. <https://lex.uz>.

2.Azimova I va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. –T.: Respublika ta'lim markazi, 2021

3.Husanboyeva Q. Adabiyot –ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.-12 b

4. Ochilov M.Yangi pedagogik texnologiyalar. "Nasaf" nashriyoti. 1999. 4. Sayidaxmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., "Moliya", 2003. 5.